

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 316 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anievovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHLATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	



NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Allakuliyev Akmal Baltayevich

PhD., Professor v.b.,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti rektori

Annotatsiya: Maqolada natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish (NYB) jarayonining nazariy-uslubiy asoslari va uning zamonaviy davlat moliyasidagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif tomonidan byudjet tizimini natijadorlik tamoyillariga asoslash, strategik rejalashtirish, dasturiy yondashuv va monitoring mexanizmlarining integratsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi, AQSh, Fransiya va Janubiy Koreya tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitiga mos gibril modelni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish, davlat moliyasi, strategik rejalashtirish, samaradorlik indikatorlari, fiskal boshqaruv, raqamli byudjet tizimi.

Abstract: The article analyzes the theoretical and methodological foundations of the performance-based budgeting (PBB) process and its role in modern public finance management. The author scientifically substantiates the integration of performance principles into the budget system, emphasizing strategic planning, program-based approaches, and monitoring mechanisms. The study provides a comparative analysis of the experiences of the European Union, the United States, France, and South Korea, highlighting the need to develop a hybrid model adapted to Uzbekistan's context.

Key words: performance-based budgeting, public finance, strategic planning, performance indicators, fiscal management, digital budget system.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы процесса результативно-ориентированного бюджетирования (РОБ) и его роль в современной системе государственных финансов. Автор научно обосновывает необходимость внедрения принципов результативности в бюджетную систему, интеграцию стратегического планирования, программного подхода и механизмов мониторинга. В исследовании проведён сравнительный анализ опыта Европейского Союза, США, Франции и Республики Корея, подчеркнута необходимость разработки гибридной модели, адаптированной к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: результативно-ориентированное бюджетирование, государственные финансы, стратегическое планирование, показатели эффективности, фискальное управление, цифровая бюджетная система.

KIRISH

Hozirgi davrda davlat boshqaruvi tizimida byudjet siyosatini natijadorlikka yo'naltirish jarayoni global miqyosda ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti faqat moliyaviy taqsimot vositasi sifatida emas, balki milliy rivojlanish strategiyasining muhim boshqaruv mexanizmi sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish (NYB) jarayoni zamonaviy davlat moliyasi falsafasining ajralmas qismi bo'lib, u davlat resurslaridan foydalanishning sifat omilini birinchi o'ringa olib chiqadi.

NYB g'oyasining shakllanishi XX asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Avvalgi byudjet tizimlarida asosiy e'tibor xarajatlarning miqdoriga qaratilgan bo'lsa, natijaviylik yondashuvida moliyaviy resurslarning jamiyat farovonligiga qo'shgan hissasi baholanadi. Ushbu yondashuvning shakllanishiga Yevropa Ittifoqi davlatlarida Yagona byudjet islohoti (Single Budget Reform, 1999), Avstraliya va Yangi Zelandiyada "Performance Management Framework", shuningdek, Kanadada Results-Based Management Initiative (RBM) dasturlari kuchli turtki bo'lgan. Mazkur tizimlar byudjet siyosatini strategik natijalar bilan bog'lash, dasturiy rejalashtirish va natijalarni monitoring qilish orqali moliyaviy boshqaruvni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqqan.

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish nazariy jihatdan bir necha iqtisodiy yondashuvlarga tayanadi. Birinchidan, neoinstitutsional yondashuv NYBni davlat institutlari samaradorligini oshiruvchi boshqaruv modeli sifatida ko'radi. Bu yondashuvda muhim e'tibor "hisobdorlik zanjiri" va "boshqaruv natijasi" (management outcome) o'rtasidagi bog'liqlikka qaratiladi. Ikkinchidan, yangi davlat boshqaruvi nazariyasi (doirasida natijaviy byudjetlashtirish bozor tamoyillarini davlat sektoriga moslashtiruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi.



Bu nazariyada resurslar natija bilan bevosita bog'lanadi, har bir tashkilot esa o'z faoliyati samaradorligi uchun javobgar hisoblanadi. Uchinchidan, agentlik nazariyasi doirasida esa natijaviy byudjetlashtirish davlat va ijro organlari o'rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlovchi shartnomaviy mexanizm sifatida qaraladi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish jarayoni o'zining murakkab, ko'p bosqichli tuzilmasi bilan ajralib turadi. U strategik rejalashtirish, dasturlashtirish, natijalarni o'lchash, monitoring va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Har bir bosqichda o'lchovli indikatorlar tizimi orqali harakatlar natijasi aniqlanadi, resurslarning har bir birligiga nisbatan yaratilgan qiymat baholanadi. Bu jarayon orqali byudjet nafaqat mablag'lar taqsimoti hujjati, balki boshqaruvning tahliliy instrumentiga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish jarayonining nazariy-uslubiy asoslarini chuqur o'rganish nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshirish, balki davlat boshqaruvida strategik fikrlash, natija uchun javobgarlik va innovatsion yondashuvni rivojlantirish uchun zarurdir. Bu jarayon iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy dasturlarni maqsadli amalga oshirish hamda fuqarolar ishonchini oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish masalasi bo'yicha jahon iqtisodiy tafakkurida turli ilmiy yondashuvlar shakllangan bo'lib, ularning har biri davlat moliyasini samarali boshqarishning muayyan tamoyillarini asoslab bergan. Mazkur konsepsiya davlat byudjetini faqat mablag' taqsimoti vositasi emas, balki iqtisodiy natijalarni yaratish mexanizmi sifatida qaraydi.

Devid Moynihan o'z tadqiqotlarida natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishni "natija sikli" orqali tushuntiradi. Unga ko'ra, byudjet jarayoni to'rtta bosqichdan iborat: maqsadni aniqlash, natijani o'lchash, ma'lumotlardan qaror qabul qilishda foydalanish va baholash mexanizmini takomillashtirish. Muallifning fikricha, natijaviylik tizimi samarali ishlashi uchun davlat idoralari o'z faoliyatining real ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinishi zarur [1].

Kristofer Xud natijaviylik konsepsiyasini yangi davlat boshqaruvi nazariyasi bilan bog'laydi. U "natija orqali boshqaruv" tamoyilini ilgari surib, davlat idoralari iqtisodiy samaradorlikni raqobat, ochiqlik va hisobdorlik orqali ta'minlash mumkinligini isbotlaydi [2]. Shu yo'nalishda Polit va Baukart ham o'z izlanishlarida natijaviylik yondashuvi davlat boshqaruvi madaniyatini transformatsiya qilishini ta'kidlab, "boshqaruv sifati" tushunchasini kiritganlar [3].

Xarri Xatri o'z asarlarida natijaviy byudjetlashtirishda indikatorlar tizimi asosiy mezon sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. U indikatorlarni to'rtta asosiy turga ajratadi: kirish (resurslar), jarayon (faoliyat), mahsulot (xizmat natijasi) va ta'sir (ijtimoiy samaradorlik). Uning fikricha, indikatorlarning to'g'ri tanlanishi byudjet natijadorligini baholashda aniqlik va ishonchlikni ta'minlaydi [4].

Bix Perrin esa natijalarni o'lchashda faqat sonli ma'lumotlarga tayanish yetarli emasligini, ularni sifat jihatdan tahlil qilish zarurligini asoslaydi. U "ko'rsatkichlar illyuziyasi" tushunchasini kiritgan holda, byudjet samaradorligini baholashda muvozanatli, kontekstual yondashuvdan foydalanishni taklif etadi [5].

Jon Meyn natijalarni baholashda "hissa tahlili" usulini ishlab chiqib, murakkab dasturlarda to'liq isbotlash o'rniga mantiqiy zanjir asosida natijaga qo'shilgan hissani aniqlash metodologiyasini ilgari suradi. Bu yondashuv natijadorlikni real sharoitda o'lchash uchun qulay vosita sifatida qaraladi [6].

Robert Kaplan va Devid Norton tomonidan ishlab chiqilgan "muvozanatli ko'rsatkichlar kartasi" konsepsiyasi ham natijaviylik tizimining muhim metodik asosini tashkil etadi. Ular byudjet rejalashtirishda moliyaviy, ichki jarayon, innovatsiya va o'rganish yo'nalishlari o'rtasida muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlab, bu orqali davlat idoralari faoliyatini strategik natijalarga yo'naltirish mumkinligini isbotlagan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish tizimini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu tizim faqat texnik moliyaviy vosita emas, balki boshqaruv madaniyati, javobgarlik va samaradorlikni birlashtiruvchi kompleks tizimdir. Uning muvaffaqiyatli ishlashi uchun byudjet jarayonining har bir bosqichi - rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va baholash - yagona natija zanjiri doirasida ishlashi zarur. Quyidagi tahlil natijalari bu tizimning amaliyotda samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan konseptual omillarni ochib beradi.



1-jadval. Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish jarayonining asosiy bosqichlari va ularning mazmuni

Bosqich nomi	Asosiy mazmuni	Uslubiy ahamiyati va natijaviylikka ta'siri
Strategik rejalashtirish	Davlat siyosatining ustuvor maqsadlari bilan byudjet dasturlarini uyg'unlashtirish, uzoq muddatli natijalarni oldindan belgilash.	Ushbu bosqich natijaviylik tamoyilining poydevorini yaratadi. Strategik maqsadlar bilan bog'langan byudjet tizimi resurslarni faqat sarf qilish emas, balki maqsadli natijalar yaratishga yo'naltiradi.
Dasturiy rejalashtirish	Har bir soha yoki vazirlik uchun aniq natijalarga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish, ularning indikatorlarini aniqlash.	Bu bosqichda moliyaviy mablag'lar dasturiy natijalarga bog'lanadi. Shuning uchun bu jarayon byudjet samaradorligining mezonlarini shakllantiradi.
Ijro va monitoring	Byudjet mablag'lari sarfini kuzatish, oraliq natijalarni baholash va resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash.	Monitoring orqali davlat dasturlarining real samarasi tahlil qilinadi, bu esa qaror qabul qilish jarayonida adaptiv boshqaruvni kuchaytiradi.
Baholash va qayta rejalashtirish	Amalga oshirilgan dasturlarning natijalarini tahlil qilish, indikatorlar asosida baho berish va keyingi byudjet davrini takomillashtirish.	Baholash natijalari orqali tizimda o'zgarish kiritish imkoniyati yaratiladi. Bu doimiy o'rganish va takomillashuv madaniyatini shakllantiradi.

Manba: Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu jadvalda keltirilgan bosqichlar natijaviy byudjetlashtirishning tsiklik tabiatini aks ettiradi. Tizimda har bir bosqich boshqasini to'ldiradi: strategik rejalashtirish – maqsadni belgilaydi, dasturiy yondashuv – o'lchov vositasini yaratadi, monitoring – jarayonni kuzatadi, baholash esa o'rganish mexanizmini shakllantiradi. Natijada, byudjet boshqaruvi "reaktiv" emas, balki "proaktiv" tus oladi, ya'ni moliyaviy qarorlar kelgusidagi natijalar asosida shakllanadi.

Bu yondashuv O'zbekiston uchun ayniqsa dolzarb, chunki mamlakatda davlat dasturlarining samaradorligini o'lchash va tahlil qilish tizimi endilikda shakllanmoqda. Shu bois, har bir bosqichni normativ jihatdan aniq belgilash, indikatorlar tizimini yagona formatda ishlab chiqish va ularni raqamli platformalarga integratsiya qilish zarur.

2-jadval. Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishning xalqaro modellari va O'zbekiston uchun o'rganiladigan tajribalar

Mamlakat / model	Tizimning asosiy jihatlari	O'zbekiston uchun o'rganiladigan tajriba
AQSh modeli (Rejalashtirish–Dasturlashtirish–Byudjetlashtirish tizimi)	Bu modelda byudjet har bir davlat dasturining aniq maqsadi, vazifasi va kutilayotgan natijalarini belgilaydi. Xarajatlar har yili natijalar tahlili asosida qayta ko'rib chiqiladi. Har bir byudjet bandi "nima uchun sarflandi va qanday natija berdi" tamoyili asosida baholanadi.	Ushbu modeldan O'zbekistonda byudjet mablag'larini natijaga qarab ajratish amaliyotini shakllantirish mumkin. Ya'ni, har bir davlat dasturiga ajratilayotgan mablag' aniq natijaviy ko'rsatkichlar bilan bog'lanishi, samaradorligi esa yillik tahlil asosida qayta baholanishi zarur.
Fransiya modeli (LOLF tizimi – moliyaviy qonunlarni modernizatsiya qilish modeli)	Fransiyada 2001-yilda qabul qilingan LOLF qonuni asosida har bir vazirlik faoliyati natijadorlik mezonlari bilan baholanadi. Har bir byudjet dasturining "maqsad, indikator va natija" uchligi qat'iy belgilanadi. Parlament va jamoatchilik tomonidan baholash mexanizmlari joriy etilgan.	O'zbekiston uchun mazkur modeldan samarali parlament nazoratini kuchaytirish, byudjet dasturlari ijrosi yuzasidan ochiq hisobot berish tizimini yo'lga qo'yish, har bir soha uchun samaradorlik indikatorlarini belgilash tajribasini olish mumkin.
Janubiy Koreya modeli (Elektron natijadorlik tizimi)	Bu modelda barcha davlat xarajatlari yagona elektron platforma orqali boshqariladi. Dastur samaradorligi avtomatik tarzda aniqlanadi. Tizimda "raqamli boshqaruv" tamoyili ustuvor bo'lib, har bir idoraning natijalari onlayn shaklda kuzatiladi.	O'zbekistonda elektron byudjet platformalarini yaratish, raqamli nazorat tizimini kengaytirish va real vaqt rejimida byudjet ijrosini kuzatish orqali shaffoflikni oshirish mumkin. Bu esa korrupsiya xavfini kamaytiradi va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Manba: Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi



Jadvalda keltirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishning har bir modeli o'ziga xos davlat boshqaruvi falsafasi va iqtisodiy muhit bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston uchun ushbu tajribalarning eng muhim jihati - natijani moliyaviy qarorlar markaziga olib chiqishdir. Mamlakatda hozirgi islohotlar jarayonida davlat xarajatlari natija bilan bog'lash, har bir sohada indikatorlar tizimini shakllantirish, elektron boshqaruv infratuzilmasini mustahkamlash, shuningdek, fuqarolik jamiyatining monitoringini kuchaytirish - xalqaro tajribadan olinadigan eng dolzarb yo'nalishlardir.

Shunday qilib, xorijiy modellarning chuqur tahlili natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishning universal emas, balki moslashtirilgan milliy modelini yaratish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun bu yo'nalishda eng maqbul yondashuv - Fransiya va Janubiy Koreya tajribalarini uyg'unlashtirgan gibrid tizim bo'lib, u bir tomondan - qonunchilik mustahkamligini, ikkinchi tomondan esa - raqamli monitoring va ochiqlikni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish tizimi davlat moliyasini boshqarishning yangi paradigmasini ifodalaydi. Uning joriy etilishi byudjet siyosatini xarajatlarni nazorat qilishdan natijalarni boshqarish bosqichiga o'tkazishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasida bu yondashuvni to'liq shakllantirish uchun birinchi navbatda normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, tashkiliy va institutsional mexanizmlarni uyg'unlashtirish hamda byudjet jarayonining barcha bosqichlarini natijadorlik tamoyiliga moslashtirish zarur. Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchi, natijaviylik tamoyillarini amalda joriy etish uchun institutsional mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish zarur. Har bir vazirlikda "natijaviy byudjetlashtirish markazi" tashkil etilib, u dasturlar samaradorligini baholash, indikatorlar tizimini ishlab chiqish va oraliq natijalarni monitoring qilish bilan shug'ullanishi lozim. Bundan tashqari, Moliya vazirligi huzurida mustaqil "Fiskal baholash va natijadorlik instituti" tashkil etilishi byudjet tahlilini ilmiy asosda olib borish imkonini beradi.

Ikkinchi, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali byudjet jarayonining shaffofligini ta'minlash zarur. Elektron byudjet platformasi ("e-Budget") barcha bosqichlarni - rejalashtirish, ijro, nazorat va hisobotni yagona tizimda birlashtirishi kerak. Bu tizimda dasturlar ijrosi haqidagi real vaqt ma'lumotlari, indikator natijalari va byudjet harakatlari ochiq e'lon qilinib, jamoatchilik nazorati uchun imkon yaratiladi.

Uchinchi, kadrlar salohiyatini oshirish natijaviylik tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun hal qiluvchi omildir. Davlat moliyasi tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun natijadorlik mezonlari, indikatorlar tahlili va dasturiy baholash metodologiyasi bo'yicha maxsus malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari ham ushbu sohada amaliy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi modullarni joriy etishlari maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchi, natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishda hisobdorlik va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Har yili davlat byudjetining ijrosi yuzasidan parlament va fuqarolik jamiyati vakillarining ochiq eshituvlari o'tkazilishi, har bir yirik davlat dasturi bo'yicha natijaviy hisobotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi zarur. Bu orqali davlat moliyasi tizimida ochiqlik, ishonch va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari mustahkamlanadi.

Umuman olganda, natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining strategik barqarorligi va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu tizimning joriy etilishi natijadorlik, shaffoflik va javobgarlikni bir butun tizim sifatida uyg'unlashtiradi, davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda ijtimoiy dasturlarning haqiqiy ta'sirini o'lchash imkonini yaratadi. Eng asosiysi, natijaviylikka asoslangan byudjet siyosati davlat boshqaruvinin moliyaviy raqamlar majmuasidan strategik natijalarga yo'naltirilgan tizim darajasiga ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Moynihan D. Managing for Results: The Performance Cycle in Public Administration. – London: Routledge, 2008. – 325 p.
2. Hood C. The New Public Management: Principles of Efficiency and Accountability in Government. – Oxford: Clarendon Press, 1991. – 290 p.
3. Pollitt C., Bouckaert G. Public Management Reform: A Comparative Analysis – New Public Management, Governance, and the Neo-Weberian State. – Brussels: EuroGov Press, 2011. – 356 p.
4. Hatry H. P. Performance Measurement: Getting Results. – Washington, D.C.: Urban Institute Press, 2006. – 284 p.
5. Perrin B. Moving from Outputs to Outcomes: Practical Advice from Governments Around the World. – Paris: OECD Publishing, 2007. – 278 p.
6. Mayne J. Contribution Analysis: Addressing Cause and Effect in Evaluating Complex Programs. – Ottawa: UNDP Publications, 2009. – 312 p.
7. Kaplan R., Norton D. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996. – 322 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
